

Rasman: 2024-yilda Qurbon hayitining birinchi kuni 16-iyun - yakshanba kuni nishonlanadi



Prezident Shavkat Mirziyoyev “Muborak Qurbon hayitini nishonlash to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi

Qarorga ko‘ra, 2024-yilda Qurbon hayitining birinchi kuni 16-iyun - yakshanbaga to‘g‘ri kelishi munosabati bilan yurtimizda 16-iyun Qurbon hayiti bayrami sifatida nishonlanadi.

Qurbon hayitining birinchi kuni dam olish kuniga to‘g‘ri kelishi munosabati bilan ushbu dam olish kuni 17-iyun - dushanba kuniga ko‘chiriladi, 18-iyun - seshanba kuni barcha xodimlar uchun qo‘shimcha dam olish kuni bo‘ladi.

Termiz shahar hokimligi Axborot xizmati